

## **“ONA TILI VA O’QISH SAVODXONLIGI” FANI BO’YICHA YARATILGAN DARSLIKlardagi MATNLARNING MAZMUNIGA QO’YILGAN TALABLAR**

*Nusratova Hamida Cho’liboyevna,  
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, f.f.b. PhD*

*Annotatsiya. Maqolada boshlang’ich sinflarning ona tili, o’qish darslari o’z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko’ra ta’lim tizimida alohida o’rin tutishi, uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turishi, ona tili va o’qish fanlarini birlashtirgan “Ona tili va o’qish savodxonligi” deb nomlangan yagona fanjoriy etilishi, yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she’rlar bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko’maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iboratligi haqida tahlillar berilgan.*

*Аннотации. В статье родной язык начальных классов, уроки чтения занимают особое место в системе образования по своей сути, целям и задачам, на нем основаны основы грамотности и нравственно-воспитательного воспитания, родной язык и единый перевод под названием «Родной язык и грамотность чтения», сочетающего в себе зимние науки, тексты и стихотворения, отобранные для нового учебника, являются текстами художественно-познавательного и научно-популярного стиля, помогающими ребенку влиться в общественную жизнь, дан анализ его состава.*

*Annotations. In the article, the native language of primary school, reading lessons occupy a special place in the education system in its essence, goals and objectives; In itself, winter sciences, texts and poems selected for the new textbook are texts of artistic-educational and popular science style that help the child to integrate into public life, an analysis of its composition is given.*

*Таянч сўзлар: интеллектуал, ма’naviy salohiyat, integratsiya, ta’lim-tarbiya, ilm-fan sohalari, kompetensiya, darslik, o’qish savodxonligi.*

*Ключевые слова: интеллектуальный, духовный потенциал, интеграция, образование, области науки, компетентность, учебник, читательская грамотность.*

*Key words: intellectual, spiritual potential, integration, education, areas of science, competence, textbook, reading literacy.*

Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsad qilingan va bu amalga oshirilayotgan ekan, bu jarayonda yoshlarning o’rni va ro’li alohida ahamiyatga ega. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, avlodlardan meros qolgan muqaddas zaminni yuksaltirish, ilg’or davlatlar darajasiga ko’tarish ularning bilimi, istedodi, jasorati, ma’naviy barkamolligiga bog’liq. Shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz o’zining barcha asarlari va ma’ruzalarida yoshlar tarbiyasini markaziy o’ringa qo’yish bilan, uni davlat siyosati darajasiga ko’tardi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan da’vatlari ta’limning sifatli va samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili, o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o‘qish ta’limsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Respublika ta’lim markazi direktori Shuhrat Sattorov yangi milliy o‘quv dasturining avvalgilaridan farqi haqida ma’lumot berib, bu dasturga ko‘ra songa emas, sifatga e’tibor qaratilishini bildirib o‘tgan edi.

”Tahlillarga diqqat qaratsak, 2018 yilga qadar umumta’lim maktablarida 23 ta fan o‘qitilgan bo‘lsa, o‘tgan ikki yil mobaynida fanlar soni maqbullashtirilishi evaziga bu miqdor 17taga tushirildi. Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, misol uchun, Buyuk Britaniyada o‘quvchilar umumta’lim davrida 6tadan 12tagacha fanni o‘zlashtirishadi. Fanlar soni ko‘pligi o‘quvchining fanni o‘zlashtirishi uchun ajratadigan vaqt me’yorini oshirib yuboradi. Masalan, umumta’lim maktablarida 5-6ta fan uchun har kuni o‘rtacha 4,5 yoki 5 soat vaqt ajratiladi. O‘quvchi darsda o‘tilgan fanlar yuzasidan uyda tayyorlanishi uchun har bir fanga taxminan 20-30 daqiqadan vaqt ajratadi. Ya’ni uyga vazifani bajarish uchun o‘quvchi o‘rtacha 2-3 soat vaqt ajratadi. Agar unga ko‘maklashuvchi shaxs bo‘lmasa, o‘quvchidan uyga vazifani bajarish yanada ko‘proq vaqtni talab etadi”.

Guvohi bo‘lganimizdek, o‘quvchi har kuni 7-8 soat vaqtini o‘quv fanini o‘zlashtirishga sarflamoqda. Xalqaro tajribada, misol uchun, Finlandiya tajribasiga ko‘ra, o‘quvchilar har kuni fanlarni o‘zlashtirish uchun 4 soat ajratadi.

O‘quv darslari va o‘zlashtirish soatlari ortib ketishi natijasida:

- O‘quvchi mavzularni o‘zlashtirishga ulgurmaydi;
- Bu esa uning fanga nisbatan qiziqishini susaytiradi;
- Natijada o‘quvchi darsdan bezib, o‘zlashtirish uchun ichki rag‘bat topmaydi;

• Shuningdek, o‘quvchida o‘zining qiziqishlari, qo‘shimcha mashg‘ulotlar uchun vaqt ajrata olmaydi.

O‘zbekiston prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni asosida tayanch o‘quv rejasini takomillashtirish hamda o‘zaro uzviy bog‘liq fanlarni birlashtirish hisobiga ularning sonini optimallashtirish belgilandi. Bunda ko‘zlangan asosiy maqsad endi songa emas, sifatga urg‘u berish, turli fanlardagi takrorlarning oldini olishdan iborat.

Tahlillarga ko‘ra, amaldagi o‘quv dasturi asosida o‘quvchilarga haftasiga

o'rtacha 33ta yangi mavzu o'tiladi. Bu - o'quvchi bir hafta mobaynida 33ta mavzuni o'zlashtirishi kerak degani. Amaldagi o'quv dasturi asosida yaratilgan fanlar o'rtasida o'zaro uyg'unlik - integratsiya mavjud emasligi hisobiga o'quvchilar olgan bilimlarni mantiqan bog'lay olmaydi. Natijada darsda olgan bilimni hayotdagi vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasi rivojlanmay qoladi.

Amaldagi dasturda o'quvchilar 1-sinf dan 11-sinfga qadar 6790ta mavzuni o'zlashtirishi kerak. Milliy o'quv dasturi asosida mavzular sonini 40 foizga qisqarishi kutilmoqda», dedi Shuhrat Sattorov.

U mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi tarzda kiritilishini ta'kidlagan. «Avvalgi o'quv dasturlari mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan. Yangi Milliy o'quv dasturi mazmuni 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyotdan iborat bo'ladi va bu o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

O'quv dasturlarida baholash esa faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi. Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilar qiziqishiga ko'ra fanlarni tanlab o'qish imkonini beruvchi variativ o'quv dasturlar asosida hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoni yaratiladi.

Milliy o'quv dasturi asosida fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritiladi», dedi u.

Shu paytgacha Ona tili va O'qish fanlari alohida o'qitilgan. Endi esa ushbu ikki fanni birlashtirgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" deb nomlangan yagona fan dars soati saqlab qoling holatda tashkil etiladi.

O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan. O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi.

Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi o'qidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalarga qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan.

Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo'ladi. Eski darsliklar til strukturasi o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasi ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy

e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.

Amaldagi darslikdan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldiriladi edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan. Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to'yxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi. Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida ta'lim sifatiga mas'ul idora, tashkilotlar oldiga "...uzluksiz ta'lim tizimini mazmunini sifat jihatidan, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" kabi qator muhim vazifalar qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash» masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda ona tili ta'limining o'rni alohida ahamiyatga ega. Jumladan, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning bilimini baholash jahon standartlari asosida amalga oshirish bugungi kunda o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan.

Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrning jamiyat oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda. Strategik maqsadlarga erishish yangi marralarni zabt etish rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olish uchun mamlakatda bilimli tajribali va zamonaviy fikrlaydigan yuksak saviyali kadrlar mutaxassislarning o'rni beqiyos. Buning zaminida inson kapitali sodda qilib aytganda inson uning salohiyatini kashf etish hamda uni ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida safarbar qilish kabi ulug'vor vazifalar turadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalarini rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. "Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki bu shu sarmoya jamiyatga 15-17 barabar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich 4 barobarni tashkil etadi. Inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun esa barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart" Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi prezidenti. Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi? Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarni jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarni monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi. Qanday xalqaro baholash dasturlari mavjud? PISA – o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi PIRLS – matnini o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring ICILS - kompyuter va axborot savodxonligi bo'yicha xalqaro tadqiqot kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini

yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda.

Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi. Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi.

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh..M. Erlin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 B.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907 qarori.

3. Bakiyeva, H. (2019). DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(6).

4. Jabborovna, S. X. (2022). The Significance of Phonetics Department in Mother Language Acquisition of Primary Students. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(10), 55-58.

5. Masharipova, U. A. (2015). FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF JUNIOR PUPILS BASED ON THE DEVELOPMENT OF CONNECTED SPEECH. In Lifelong learning: Continuous education for sustainable development (pp. 100-101).

6. Nusratova, H. (2021, October). BOSHLANG'ICH SINFDAN O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH: DOI: 10.53885/edinres. 2021.80. 81.021 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lim fanlari kafedrasida dotsenti, PhD. In Научно-практическая конференция (pp. 51-52).

7. Hamida, N. (2022, March). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARINING O'QITILISH HOLATI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.68. 31.102 Nusratova Hamida, Nizomiy nomidagi TDPU Boshlang'ich ta'lim fanlari kafedrasida dotsenti, PhD Tursunova Zarina, Nizomiy nomidagi TDPU 2-bosqich magistri. In Научно-практическая конференция.



8. Нусратова, Х. Н. (2021). 13. ҲЧ Нусратова Ўзбек болалар адабиёти қиссачилиги ривожда Сафар Барноев асарларининг тутган ўрни: ҲЧ Нусратова, Низомий номидаги ТДПУ доценти, ф. ф. б. PhD. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (1).

9. Нусратова, Х. Ч. (2021). ЭВОЛЮЦИЯ УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ ПОВЕСТВОВАНИЙ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА САФАРА БАРНОЕВА). *Интернаука*, (11-1), 18-20.

10. Xalikov, A. A., & Musamedova, K. A. (2020). USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TRAINING. *Интернаука*, (12-3), 65-66.

11. Xalikov, A. A., & Musamedova, K. A. (2022). O'QUV JARAYONIDA MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(6), 85-88.

12. Xalikov, A. A., & Musamedova, K. A. (2020). Pedagogik fan metodologiyasining tushunchasi, yondoshuvlari, qonuniyatlari, tamoyillari. *Журнал Интернаука. Москва*, (25), 154.